

Ananaviy ta'lim boshlanishidan oldin institut jamoasining onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi

Ta'lim tizimining samarasi va natijasi muhim masala. Pandemiya sharoitida bir muncha murakkabliklar tug'ilgani sir emas. Onlayn tizimda imkoniyat va sharoitdan kelib chiqqan holda dars mashg'ulotlari olib borildi. Endilikda oflayn tizimga o'tish ham kundalik mavzuga aylangani bejiz emas. Barchasi ta'lim sifati va samarasi uchun harakat. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy telegramm sahifasida e'lon qilingan "Respublika komissiyasining 2020- yil 12- noyabrdagi yig'ilishi qaroriga muvofiq barcha oliy ta'lim muassasalarida joriy yilning 16- noyabridan oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va reja-grafik asosida o'quv jarayonini an'anaviy shaklda davom ettirish belgilandi" xabar munosabati bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rahbariyati hamda institut jamoasi ishtirokida 2020- yil 14- noyabr soat 16:00 da onlayn yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishda barcha prorektorlar, filiallar direktorlari, fakultet dekanlari, bo'lim va markaz boshliqlari (TT) barcha hodimlari, ishlar boshqarmasi, buxgalteriya, institut shifoxonasi hodimlari va boshqalar to'liq holatda), dekan muovnlari, kafedra mudirlari hamda barcha professor-o'qituvchilar ishtirok etishdi.



Institut rektori, professor Umurzakov O'ktam Parдавevich o'quvning oflayn tizimda boshlanishida gigenik qoidalarga to'la rioya etilishi zarurligini ta'kidlab o'tdilar. Institutning barcha mas'ul rahbarlariga nazoratni kuchaytirish yuklandi. Ayyor virusdan har damda, har qadamda ogoh bo'lish kerakligi qayd etildi. Xodimlar bo'limi, Monitoring va ichki nazorat bo'limi, O'quv-uslubiy boshqarma boshliqlari ishtirokchilarni kirishi haqida monitoring olib borishi hamda institut rahbariyatiga tizimli ravishda ma'lumot taqdim etishi alohida uqtirildi. Yig'ilish yakunida institut rektori onlayn tarzda yo'llangan savollarga javob berdi.

TIQXMMI matbuot xizmati